



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MDH BOSH KOTIBI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining kuzatuvchilar missiyasi boshchiligidagi mamlakatimizda bo‘lib turgan ushbu tashkilot bosh kotibi Sergey Lebedevni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida MDH bosh kotibi davlatimiz rahbarini O‘zbekiston Prezidenti saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan samimiy tabriklab, unga baxt-saodat, mamlakatimiz barqaror

taraqqiyoti va ravnaqini ta‘minlash yo‘lida muvaffaqiyatlar tiladi. Saylov xalqaro standartlarga to‘liq mos holda o‘tqani qayd etildi. Saylovchilar ishtirokining yuqori da-

rajasi hamda ovoz berish natijalari aholi amalda oshirilayotgan islohotlar dasturini keng qo‘llab-quvvatlayotgani va unga ishonishidan dalolat ekani alohida ta‘kidlandi.



MDH doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi. Keyingi yillarda O‘zbekiston Hamdo‘stlikning 40 dan ziyod bitimlarini

imzoladi, 24 ta sohaviy organlariga qo‘shildi. Kuni kecha Toshkentda MDHga a‘zo davlatlar saylov organlari rahbarlari maslahat kengashining birinchi yig‘ilishi o‘tkazildi.

Uchrashuvda ko‘p tomonlama sheriklikni kengaytirishga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

SAMARQAND VA DEHLI SAMMITLARIDA ERISHILGAN KELISHUVLARNI TO‘LIQ AMALGA OSHIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni Shanxay hamkorlik tashkilotining Prezident sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni kuzatish bo‘yicha missiyasi boshchiligidagi mamlakatimizda bo‘lib turgan SHHT bosh kotibi Chjan Minni qabul qildi.

Bosh kotib davlatimiz rahbarini saylov muvaffaqiyatli o‘tkazilgani va unda ishonchli g‘alaba qozonilgani bilan samimiy qutladi.

SHHTga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda Tashkilotning 2022-2023-yillardagi Samarqand va Dehli sammitlarida ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Iqtisodiyot, innovatsiya va yuqori texnologiyalar, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlik, oziq-ovqat va energetika

xavfsizligi, ekologiya va “yashil texnologiyalar”, turizm va madaniyat sohalari hamda SHHT doirasida xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi qo‘shma dastur va loyihalarni ilgari surish muhimligi ta‘kidlandi.

SHHTni modernizatsiya qilish, Tashkilot tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, keng mintaqamizda o‘zaro ishonch va sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qilishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘ZA

XORIJIY DAVLATLAR YETAKCHILARI O‘ZBEKISTON PREZIDENTINI SAYLOVDAGI G‘ALABASI BILAN QUTLADI

10-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisi, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Qozog‘iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqot qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Rossiya yetakchisi davlatimiz rahbarini saylovda qozonilgan ishonchli g‘alaba bilan dildan qutladi.

Alohida ta‘kidlanganidek, ovoz berish natijalari O‘zbekistonda mamlakatni yanada jadal rivojlantirish, uning

xalqaro nufuzini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar siyosati xalq tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor ko‘rsatdi.

Suhbat chog‘ida ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Yetakchilar o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, tovar ayirboshlash sur‘atini davom ettirish va sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ilgari surish masalalariga alohida to‘xtaldilar.

Davlat rahbarlari ishbiarmonlar va hududlar darajasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, faol gumanitar almashinuvni davom ettirish muhimligini ko‘rsatib o‘tdilar.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida Turkmaniston yetakchisi davlatimiz rahbarini muddatidan ilgari o‘tkazilgan Prezident saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan samimiy tabriklab, qar-dosh O‘zbekiston xalqiga farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shni-chilik va strategik sheriklik munosabatlari keyingi yillarda izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlarda amaliy hamkorlik kengayib bormoqda. Parlamentlar o‘rtasidagi aloqalar va gumanitar almashinuvlar faollashdi.

O‘zbekiston va Turkmaniston yetakchilari mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Bo‘lajak ikki tomonlama tadbirlar rejasini ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Tojikiston rahbari mamlakatimiz yetakchisini kuni kecha O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan muddatidan ilgari Prezident saylovida qozongan ishonchli g‘alabasi bilan samimiy qutladi.

O‘zbekiston bilan Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiyalar, energetika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor sohalarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davomi 2-betda

SAMIMIY QUTLOVLAR

Mamlakatimizda 9-iyul kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Shavkat Mirziyoyev g‘alaba qozongani munosabati bilan uning nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlaridan qutlovlar kelmoqda. Tabriknomalarda davlatimiz rahbariga baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar, O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqiga esa tinchlik-osoysishtalik va ravnaq tilaklari izhor etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich! O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga qayta saylanganingiz bilan chin dildan qutlayman.

Saylovdagi ishonchli g‘alabangiz yuksak siyosiy obro‘yingizni tasdiqladi, mamlakatni yanada jadal sur‘atda rivojlantirish, uning xalqaro nufuzini mustahkamlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning xalq tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatdi.

Sizning Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik

va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi qat‘iy intilishingizni yuksak qadrlaymiz. Ishonchim komil, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan ikki tomonlama aloqalarning barcha yo‘nalishlarida o‘zaro manfaatli hamkorlik izchil kengayib boraveradi hamda mintaqaviy va xalqaro masalalarda o‘zaro muvofiqlashuv ta‘minlanadi. Bu, hech shubhasiz, Rossiya va O‘zbekiston xalqlarining orzu-umidlariga mosdir.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, davlat rahbari sifatidagi g‘oyat mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblari!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qozongan navbatdagi g‘alabangiz munosabati bilan Sizni Xitoy hukumati va xalqi nomidan hamda shaxsan o‘z nomimdan samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Ushbu prezidentlik saylovi natijalari Siz hamda amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatingiz O‘zbekiston xalqi tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatdi. Dono rahbarligingiz ostida milliy taraqqiyot va tiklanish dasturi, hech shubhasiz, ulkan muvaffaqiyatlarga olib kelishiga ishonaman.

Quyidagilar ham o‘z tabriklarini yo‘llagan: Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

Si SZINPIN, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi



MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

PREZIDENT SAYLOVNING DASTLABKI NATIJALARI

Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining dastlabki natijalariga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi.

Markaziy saylov komissiya raisi Z.Nizomxo‘jayev Prezident saylovi xalqaro va milliy saylov mezonlari asosida, ko‘tarinki ruhda o‘tkazilganini qayd etdi. Mazkur siyosiy tadbirni 15 ta xalqaro tashkilot, 47 ta xorijiy davlatdan tashrif buyurgan 800 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi bevosita kuzatgani, shuningdek, saylovni milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining 1400 vakili yoritib borganini aytiladi.

Ta‘kidlanganidek, xalqimiz va mamlakatimiz hayotida muhim siyosiy tadbir bo‘lgan saylovni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Yurtimiz bo‘ylab 10 ming 784 ta, shuningdek, mamlakatimizning 39 ta xorijiy davlatdagi vakolatxonalari huzurida tuzilgan 56 ta saylov uchastkasida ovoz berish jarayonlari qizg‘in va faol tashkil etildi.

Davomi 2-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

XORIIY DAVLATLAR YETAKCHILARI O‘ZBEKISTON PREZIDENTINI SAYLOVDAGI G‘ALABASI BILAN QUTLADI

Boshlanishi 1-betda

Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan dildan qutlab, unga yangi muvaffaqiyatlar, farovonlik va ravnaq tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Qozog'iston rahbari O'zbekiston yetakchisini Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan dildan qutlab, unga yangi muvaffaqiyatlar, farovonlik va ravnaq tiladi.

O'zbekiston — Qozog'iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq izchil rivojlanib borayotgan alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo hajmi oshib bormoqda, muhim investitsiyaviy va gumanitar dasturlar amalga oshirilmoqda. Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'shma loyihalarni yanada ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro kun tartibi va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi. Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Qirg'iziston yetakchisi davlatimiz rahbarini kecha bo'lib o'tgan Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan tabriklatdi. Qayd etilganidek, ovoz berish natijalari mamlakatimiz aholisi O'zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan pragmatik siyosatga ishonishi va uni keng qo'llab-quvvatlashini yaqqol ko'rsatdi.

Telefon muloqoti davomida ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Idoralararo muloqotlar faol kechayotgani, ikki mamlakat ishbiarmonlari va hududlari o'rtasidagi almashinuvlar samarali bo'layotgani qayd etildi.

Joriy yil 1-iyun kundan O'sh shahrida O'zbekistonning bosh konsulligi o'z ishini boshladi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi ortib bormoqda, avtomobilsozlik, energetika, elektrotexnika va to'qimachilik tarmoqlarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Qo'shma Investitsiya fondining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Gumanitar sohada ikki mamlakat oqsoqollari, ziyolilari va yoshlari ishtirokidagi Avlodlar muloqoti doirasidagi tadbirlarga tayyorgarlik ko'rilmogda.

Davlat rahbarlari oliy darajadagi kelishuvlarning so'zsiz ijrosini ta'minlash muhimligini ta'kidladilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqotida ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada rivojlantirish va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Turkmaniston Prezidenti davlatimiz rahbarini kuni kecha bo'lib o'tgan muddatidan ilgari O'zbekiston Prezidenti saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy tabriklatdi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan hukumatlararo komissiyalarning yig'ilishlari, transport, energetika va madaniyat vazirlarining uchrashuvlari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur'at bilan ortib bormoqda. Qardosh xalqlarimizni yaqinlashtirishga qaratilgan muhim gumanitar dasturlar amalga oshirilmoqda.

Turkmaniston va O'zbekiston rahbarlari har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va amaliy sheriklik loyihalarini ilgari surish muhimligini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqotida ko'p qirrali munosabatlarni yanada kengaytirish va qo'shma loyihalarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Ozarbayjon rahbari mamlakatimiz yetakchisini Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy tabriklab, do'st O'zbekiston xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvga tayyorgarlik ko'rishga alohida e'tibor qaratildi. Iqtisodiy kun tartibidagi masalalarni ikki mamlakat hukumatlari darajasida puxta ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, Qo'shilmaslik harakati va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali mu-

loqotida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, qo'shma kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va faol gumanitar almashinuvni davom ettirish masalalari ko'rib chiqildi.

Belarus Prezidenti davlatimiz rahbarini Prezident saylovida qozongan ishonchli g'alabasi bilan samimiy qutlab, O'zbekistonga katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tiladi.

O'zaro savdo hajmi oshib, tibbiyot, farmatsevtika, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarda amalga oshirilayotgan loyihalar soni ko'payib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yilning aprel oyida Belarusda O'zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi, may oyida Toshkent shahrida birgalikda suratga olingan kinofilmlar premyerasi bo'lib o'tdi.

Mintaqaviy tashkilotlar, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlikka oid masalalar ham ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan bilan telefon orqali muloqotida oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining bo'lajak yig'ilishiga birgalikda har tomonlama tayyorgarlik ko'rish zarurligi haqida so'z bordi.

Suhbat avvalida Turkiya Prezidenti davlatimiz rahbarini muddatidan ilgari Prezident saylovida qozongan ishonchli g'alabasi bilan dildan qutladi, saylovchilarning ovoz berishdagi faol ishtirokini hamda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aholi tomonidan keng qo'llab-quvvatlanganini ta'kidladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol muloqot va almashinuvlarni davom ettirish, o'zaro savdo hajmini oshirish, muhim investitsiya loyihalari va gumanitar dasturlarni amalga oshirishga ko'maklashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy telefon orqali muloqot qildilar.

Suhbat avvalida Eron rahbari mamlakatimiz yetakchisini kuni kecha O'zbekistonda o'tgan muddatidan ilgari Prezident saylovida ishonchli g'alaba qozonganini bilan samimiy tabriklatdi.

Eron Prezidenti ushbu mamlakatning oliy diniy rahbari oyatulloh Sayid Ali Xomaneining salomi va tabriklarini ham yetkazdi.

Joriy yilning iyun oyida Eronga rasmiy tashrif yakunida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Qabul qilingan "Yo'l xaritasi"ga muvofiq sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirishga kirishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol muloqotlarini, shu jumladan, ikki mamlakat ishbiarmon doiralari va hududlar ma'muriyatlari darajasidagi aloqalarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar, jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban bilan telefon orqali muloqoti davomida faol va tizimli siyosiy aloqalarni davom ettirish, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalarni jadal-lashtirish, ishbiarmonlik va gumanitar tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi boshqa muhim masalalar muhokama qilindi.

Vengriya Bosh vaziri mamlakatimiz yetakchisini kuni kecha bo'lib o'tgan muddatidan ilgari Prezident saylovida qozonilgan ishonchli g'alaba bilan samimiy tabriklab, O'zbekiston xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Muntazam siyosiy maslahatlashuvlar yo'lga qo'yilgan. Joriy yilning mart oyida Buda-pest shahrida O'zbekiston elchixonasi ochildi.

O'zaro savdo hajmi oshib bormoqda. Bank-moliya bozoriga Yevropaning yetakchi "OTP" banki kirib keldi.

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va boshqa ustuvor tarmoqlarda qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda. Investitsiyalar portfeli jami 1,5 milliard dollarni tashkil etmoqda.

Telefon muloqoti chog'ida Hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida kooperatsiya loyihala-

rini tezlashtirish, gumanitar va ta'lim almashinuvlarini kengaytirish bo'yicha aniq chora-tadbir ishlab chiqish muhimligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Qozog'istonning Birinchi Prezidenti O'zbekiston rahbarini kuni kecha mamlakatimizda bo'lib o'tgan muddatidan ilgari Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy qutladi.

O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda hamkorlik barcha yo'nalishlarda, shu jumladan, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, energetika, transport-logistika, madaniy-gumanitar va ta'lim sohalarida jadal rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqotida keng ko'lami hamkorlikni yanada rivojlantirish, Amirliklarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shayx Mansur Ol Nahayon O'zbekiston rahbarini bo'lib o'tgan saylovdagi ishonchli g'alabasi bilan dildan qutlab, xalqimizga farovonlik va ravnaq tiladi. BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayonning tabrigi va eng ezgu tilaklarini ham yetkazdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Tovar ayirboshlashning o'sish sur'ati, qo'shma korxonalar hamda ikki mamlakat o'rtasidagi aviaqatnovlar soni ortayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda investitsiya loyihalari portfeli 4 milliard dollardan oshib, "yashil energetika", qishloq xo'jaligi, transport va logistika, turizm infratuzilmasi va boshqa yo'nalishlarni qamrab olgan.

BAA tomoni O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarni amalga oshirishda ham texnik ko'mak ko'rsatib kelmoqda.

Suhbat davomida oliy darajadagi faol muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar hamkorlikning yirik loyihalarini ilgari surish muhim ekani alohida ta'kidlandi.

O'ZA



MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

PREZIDENT SAYLOVINING DASTLABKI NATIJALARI

Boshlanishi 1-betda

Prezident saylovida jami saylovchilarning 15 million 651 ming 405 nafari yoki 79,88 foizi ovoz berishda ishtirok etdi. Dastlabki natijalarga ko'ra, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatov 629 ming 116 ta yoki 4,02 foiz, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Robaxon Maxmudova 693 ming 634 ta yoki 4,43 foiz, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev 13 million 625 mingdan ortiq yoki 87,05 foiz, O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Abdushukur Hamzayev 585 ming 711 yoki 3,74 foiz ovoz to'pladi.

Dastlabki natijalariga ko'ra, Shavkat Mirziyoyev saylovda g'alabaga erishdi.

Shu kuni oliy sud va Bosh prokuratura vakillari ishtirokida brifinglar ham o'tkazildi. Ularda Prezident saylovida qonuniylilikni ta'minlash, qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Bildirilishicha, saylovga tayyorgarlik ko'rish jarayoni boshlanganidan bugungi kunga qadar sudlarga saylovni tashkil etish hamda o'tkazish, jumladan, saylov o'tkazuvchi komissiyalar faoliyatiga aralashish, ularning ishida to'siqlarni yuzasiga keltirish, saylov o'tkazuvchi komissiyalar qarorlarini ijro etmaslik, ularning murojaatlarini ko'rib chiqishni g'ayriqonuniy ravishda rad etish, ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablersiz buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik ishlari kelib tushmagan.

Shuningdek, Bosh prokuror o'rinbosari Shohrux Aminov ishtirokidagi brifingda ham saylov jarayonida qonuniylilikni ta'minlash choralarini ko'rilgani alohida qayd etildi.

Shu kuni Markaziy saylov komissiyasi matbuot markazida xalqaro tashkilotlar missiyalari vakillari ishtirokida ham brifinglar bo'lib o'tdi. Markaziy saylov komissiyasida qator uchrashuvlar o'tkazildi. Ularda xorijlik ekspertlar saylov jarayoni bilan bog'liq fikr-mulohazalarini bayon etdi.

— O'zbekistonga kelishimiz bilan bu o'lka naqadar mehmondo'st ekaniga guvoh bo'ldik, — deydi Arab saylov organlari uyushmasi ijro apparati rahbari Hisham Mahmud Yusuf Kuxail. — Saylov kuni biz 15 dan ortiq saylov uchashtasiga bordik. Uchashtalarda saylov jarayoni tinchlik-osoyishtalik bilan o'tdi. Saylovchilar uchashtalarga yuzlarida tabassum bilan kirib keldi. Mamlakatimizda saylovchilar uchun yaratilgan sharoitlar meni hayratga soldi. Markaziy saylov komissiyasi ovoz berishni professional tarzda tashkil-lashtirgani, uchashta saylov komissiyalari a'zolari ham o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashgani tahsinga sazovor. Biz O'zbekiston Markaziy saylov komissiyasi bilan hamkorlikni kengaytirishga qaror qildik. Chunki Markaziy saylov komissiyasining saylov shodisidagi boy tajribasi guvohi bo'ldik. Demokratik saylov yuqori saviyada o'tgani bilan barchangizni tabriklaymiz.

Bahor XIDIROVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



BIZ VA DUNYO

BIZ MAMLAKATIMIZNING PORLOQ KELAJAGIGA ISHONAMIZ hamda birgalikda farovon va adolatli jamiyat qurishimizga aminmiz

XORIJDAGI VATANDOSHLAR 9-IYUL KUNI O‘ZBEKISTONNING JADAL RIVOJLANISH YO‘LINI QO‘LLAB-QUVVATLADILAR

Markaziy saylov komissiyasi qaroriga binoan, 9-iyul kuni mamlakatimizning xorijiy davlatlarda-gi elchixonalari, konsulliklari va vakolatxonalarida 56 ta saylov uchashtasi ovoz berish uchun ochildi.

Saylov uchashtalari mahalliy vaqt bilan soat 8:00 dan 20:00 gacha faoliyat ko'rsatdi. Saylovga birinchi bo'lib Rossiyaning Uzoq Sharqida, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Indoneziya, Malayziyada bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolari kelishdi. Nyu-York va Vashingtondagi diplomatik vakolatxonalarda ovoz berilishi bilan bu jarayon

yakunlandi. O'sha payt Toshkentda 10-iyul, soat tonggi 5:00 edi.

Avvalroq, 28-iyundan 5-iyulga qadar yuqorida qayd etilgan saylov uchashtalarida muddatidan oldin ovoz berish tashkil qilindi, uning doirasida qo'shimcha ravishda 906 ta ko'chma saylov punkti 45 ta xorijiy davlatning O'zbekiston fuqarolari gavjum yashaydigan hududlarida, shu jumladan, diplomatika vakolatxonalarimiz mavjud bo'lmagan shaharlarda ochildi.

Markaziy saylov komissiyasining dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, xorijdagi jami 180 729 nafar

fuqaromiz muddatidan oldin ovoz berish chog'ida konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangan. Ro'y-xatlarga hammasi bo'lib chet ellardagi 323 ming 626 saylovchi kiritildi.

Saylov komissiyalari a'zolari fuqarolarimiz ovoz berishda yuqori faollikni, shuningdek, yaqqol fuqarolik pozitsiyalarini namoyon qilishganini qayd etmoqda. Ovoz berganlarning salmoqli qismini yetakchi xorijiy universitetlarda tahsil olayotgan yoshlar tashkil etdi.

"Dunyo" AA muxbirlari ayrim yurtdoshlarimiz bilan suhbatda bo'ldi.

Nargiza IMONQULOVA, (Isroil):

— Avvalo, O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlar Isroilda yashayotgan vatandoshlarimiz tomonidan ijobiy baholanganini ta'kidlashni istardim. Bu aslo tasodifiy emas. Chunki joriy yil aprel oyida bo'lib o'tgan umumxalq referendumida ma'qullangan yangilangan Konstitutsiyani O'zbekiston fuqarolari qonunlar manbai sifatida e'tirof etdi. Bu, fikrimcha, demokratiya va inson huquqlarini mustahkamlash yo'lida tashlangan zalvorli qadamdir. Yangilangan Konstitutsiya jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini hisobga olgani va tom ma'nodagi xalq Konstitutsiyasi ekani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Men O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'yayotganiga ishonaman.

9-iyul kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mantig'iga monand bo'lgani holda, bugungi o'zbek jamiyatining poydevorini yanada mustahkamlash nuqtayi nazaridan muhim bosqich bo'lib qoladi.

Umid ISMATULLAYEV, Nyu-Jersi shtatining Dover shahrida istiqomat qiladigan vatandoshimiz, "Uzbek Society of USA" o'zbek jamiyati rahbari (AQSH):

— Ona Vatanimiz — O'zbekiston hayotidagi muhim siyosiy voqea — mamlakatimiz Prezidentligiga muddatidan oldin ovoz berish AQSHning yurtdoshlarimiz ko'p yashaydigan hududlaridan biri bo'lgan Nyu-Jersi shtatida Qurbon hayiti bayramiga hamohang tarzda tashkil qilingani barchamizning faol ishtirokimiz uchun katta qulaylik yaratdi.

Ta'kidlashni istardimki, yurtdoshlarimiz bu muhim siyosiy jarayonda



Mahfuza HASANOVA, (Pokiston):

— Saylov kuni mamlakatimizning Pokistondagi elchixonasida ovoz berdim. Saylov uchashtasida nomzodlar, ularning saylovidi dasturlari bilan tanishish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

Men nomzodlar bilan yana bir bor tanishib chiqdim va o'zim munosib topgan nomzodni yoqlab ovoz berdim.

O'ylaymanki, bergan ovozim O'zbekistonning yanada ravnaq topishiga, yoshlarning kelajagi hamda mamlakatimizning ertangi taraqqiyotiga xizmat qiladi.



Nasiba PARDAYEVA, "The International School of Choueifat" maktabi o'qituvchisi (Dubay, BAA):

— Men mazkur siyosiy tadbirda ishtirokim bilan o'zim va farzandlarim kelajagi, xalqimiz farovonligi uchun ovoz berganimdan, yurtimiz ravnaqi yo'lida fuqarolik burchimni adol etganimdan mamnunman. Mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, daxsiz huquq va manfaatlari masalasi birinchi o'rinda turishi katta e'tiborga molik.

"Dunyo" AA



Javohir TOLIBOYEV, Amsterdam universiteti talabasi (Niderlandiya):

— Saylov muhim voqea, demokratiya va tanlash erkinligiga bo'lgan umumiy sodiqlikning tasdig'idir. Biroq bu saylovni ahamiyatli, istiqbolli qiladigan kuch mamlakatimizning yosh fuqarolaridir. Ushbu saylovda bizning ovozimiz muhim ahamiyatga ega.

Fikrlarimiz va umidlarimiz kelajakka ishonch bilan to'lgan. Oldimizda yangi imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda. Muayyan qiyinchiliklarga ham ro'para kelishimiz ehtimoli yo'q emas. Ammo biz birgalikda farovonlik yo'lida har qanday to'siqni yengib o'tishimizga ishonamiz.

Bu yerda gap faqatgina Prezidentni saylash emas, balki mamlakatimiz kelajagi uchun yo'lni tanlash, yoshlarning kuchini tushunadigan va qadrlaydigan, shunday qadratli kuchdan foydalanib, uni ro'y berayotgan o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirgan holda xalqimizni umid va tinchlik bardavom bo'lgan kelajakka olib boradigan rahbari tanlash haqida ketmoqda.

Biz mamlakatimizning porloq kelajagi-ga ishonamiz hamda birgalikda farovon va adolatli jamiyat qurishimizga aminmiz.



E'TIROF



AYOLGA QILINGAN BITTA YAXSHILIK

o'nta bo'lib qaytadi

Ayolga ehtirom — millatga e'tibor, deyishadi. Shu ma'noda, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga loyiq. Mana shu e'tibor tufayli bugun biz, ayollar jamiyatning faol kishisi sifatida har jabhada o'z qobiliyatimizni ko'rsataymiz. Turli sohalarida muaffaqiyatlarga erishyapmiz. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etyapmiz. Jumladan, kuni kecha yurtimizda bo'lib o'tgan Prezident saylovida ham munosib qatnashdik.



Muxlisaxon AKRAMOVA,
Toshkent shahridagi
“O'zimizniki” MCHJ rahbari,
“Faol tadbirkor” ko'krak
nishoni sohibasi

Ochig'i, men saylovda bir ayol, qolaversa, tadbirkor sifatida Shavkat Mirziyoyev nomzodini qo'llab-quvvatlab ovoz berdim. Nimaga? Avvalo, Shavkat Mirziyoyev nomzodi aynan Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatildi. Bu siyosiy tuzilma esa, nomidan ham ma'lumki, tadbirkorlarning yaqin ko'makchisi va suyanchidir.

Bugun tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ko'riyotgan chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiyotimizdagi islohotlarda, balki har bir oila, har bir ayol hayotidagi ijobiy o'zgarishlarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bunga

huzuridagi masofaviy ta'lim markaziga kasb o'rganishga yo'naltirdim. Bilasizmi, ayol juda qobiliyatli chiqib qoldi. Hozir u tikuvchilik fabrikamizning eng ilg'or va eng ko'p maosh oladigan qo'ligul chevarlaridan biri.

Men bu holatni bejiz eslamadim. Ayol kishining ko'zida yosh ko'rsam, uning yonidan shunchaki o'tib keta olmayman. Unga qo'limdan kelganicha yordam beraman. Buning boisi shuki, ayolga qilingan bitta yaxshilik o'nta bo'lib qaytadi. Chunki ayol — ona. Onalar bilimli, salohiyatli bo'lsa, ular qo'lida tarbiya topgan farzandlar ham zukko va zehniyati o'tkir bo'lib voyaga yetadi. Onalarga, ayollarga ko'rsatilayotgan e'tibor va ehtiromning zamirida ham shu haqiqat mujassam.

Darvoqe, faoliyatimiz ham xotin-qizlarni o'qimishli, hunarli, eng muhimi, ishli qilish bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, Toshkent shahridagi Yakkasaro'y tumanida joylashgan korxonamizda 160 kishining bandligi ta'minlangani yurtimizda biznes uchun qulay imkoniyatlar yaratilganining yorqin isbotidir. Ana shu 160 ishchining aksariyati xotin-qizlar.

Shu ayollarning xatti-harakatiga qarang turib, ularga mehru muhabbatim yanada oshadi. Axir hamma ishni shu o'jiza deb ataganimiz ayollar qilaypti-kul! Tinim bilishmaydi. Ularning sa'y-harakati bilan har oyda qiymati 450-500 ming dollargacha bo'lgan 500 turdagi bolalar tayyor kiyim-kechaklari ni eksport qilaymiz. Rossiya, Ukraina, Belarus, Ozarbayjon, Portugaliya va Polsha kabi davlatlarga kiyim-kechak eksport qilari ekanmiz, bu yutuqlarimiz negizida ayollar mehnati yotganini faxr bilan tilga olishni istayman. Shu o'rinda Sadrididdin Ayniyniing “Erkaklarni to'qlik buzadi, ayollarni yo'qlik buzadi”, degan mashhur gapini keltirib o'tishni joiz bildim. Kimki ayollarga, xotin-

“FAOLIYATIMIZ HAM XOTIN-QIZLARNI O'QIMISHLI, HUNARLI, ENG MUHIMI, ISHLI QILISH BILAN CHAMBARCHAS BOG'LIQ. MISOL UCHUN, TOSHKENT SHAHRIDAGI YAKKASAROY TUMANIDA JOYLASHGAN KORXONAMIZDA 160 KISHINING BANDLIGI TA'MINLANGANI YURTIMIZDA BIZNES UCHUN QULAY IMKONIYATLAR YARATILGANINING YORQIN ISBOTIDIR. ANA SHU 160 ISHCHINING AKSARIYATI XOTIN-QIZLAR.

ko'plab misollar bor. Fikrimni o'z ishim mo-baynida kuzatilgan bir voqea bilan tushuntirsam, o'ylaymanki, o'rinni bo'ladi.

Fabrikamizda biror mexanizm ishdan chiqsa, uni zudlik bilan tuzatmasangiz, ishchilarning qo'li bo'sh qoladi, eng yomoni, mahsulotni boy beramiz. Shuning uchun gohida ehtiyot qismlar topishga o'zim boshqosh bo'laman. Shunday muammoni hal etish uchun ketayotganimda yo'lida boshini tizzasiga qo'yib, yig'lab turgan ayolni ko'rib qoldim. Haydovchi “mashinani to'xtat”, dedim. U “axir shushib turibmiz-ku”, deb erinibroq tormozni bosdi.

Ayolning yoniga borib bir-ikki tomoq qirdim, lekin u eshitmadi. Keyin asta yelkasiga qo'limni qo'ydim. U menga buriilib qaradi.

— Singlim, nega yig'layapsiz, sizga yordam kerakmi, — dedim.

— Yo'q, men hech kimga ishonmayman, hamma aldaydi, yuzingizga qarang yolg'on gapiradi. Siz ham o'shalarning birisiz, sizgayam ishonmayman!

— Bundoq tushuntirib gapirsangiz-chi, sizni kim xafa qildi?

— Meni tinch qo'ying, sizga o'zi nima kerak?

— Siz keraksiz, opa-singil tutinmoqchiman.

Shunda u ayol menga ma'noli qaradi va o'rimdan turdi. Keyin ko'z yoshlarini artib:

— Menga hech kim bu gapni aytmagani, — dedi.

Uni mashinaga mindirib oldim. Shu kuni hamma ishlaringa ulgurdim. Eng muhimi, ish topa olmay o'limni qanday boqaman, deb yig'lab turgan o'sha ayolni korxonamiz

qizlarga qo'lidan kelgan yordamini ayamasa, kelajak uchun, millat ertasi uchun qayg'urgan hisoblanadi. Millat taqdiriga daxidor kishi esa vatanparvardir.

Toshkent viloyatining Qibray tumanida qo'shimcha 100 ish o'rni, Yuqori Chirchiq tumanida ham 100 ishchi o'rni ochganimizda ham ishga qabul qilingan xotin-qizlar yuz-ko'zidagi quvonchni ko'rib, beixtiyor ko'zimga yosh keldi. Axir bu 200 ayol o'las, farzandlari oldidagi onalik burchini o'la etayotganidan xursand bo'lsa, mehnat qilib ne'mat yaratayotgani jamiyat taraqqiyoti uchun muhim emasmi?

O'zi ayol zotini ishga jalb qilishda juda katta murakkabliklar mavjud. Birinchidan, ularning ko'pida hunar yo'q. Axir hunar bo'lmasa, quruq ishtiyoqning o'zi kamlik qiladi-da. Shuning uchun masofaviy ta'lim markazi o'chdik. O'zimiz o'rgatib, o'zimiz ishga o'laymiz. Onlayn o'qishga qiziquvchi xotin-qizlar safi tobora ko'payib bormoqda. Hozir Toshkent shahridagi Mashinasozlar mahallasidan 40 ayol o'qiyapti, o'zimizning ishonamizda oliy o'quv yurtiga kirish uchun 20 xotin-qiz onlayn tahsil o'laypti. Qo'rg'ontepa va Do'stlik mahallasida uyd o'tirgan ayollar hunar o'rganmoqda.

Onalar bashariyat tarbiyachilari. Onalar, xotin-qizlar qancha e'zozlansa, bilimli, aql-idrokli va tafakkuri bo'y bo'lishiga erishilsa, oila o'zgaradi, jamiyat yangilanadi, hayot darajasi yuksaladi. Aytmoqchimanki, mamlakatimizda bu yo'nalishdagi hayotiy islohotlar shu jihatlari bilan qadrlidir. Ishonamanki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bu boradagi ishlar bardavom bo'ladi.

Davr nafasi



NURONIYLAR SHUKRONASI

Mamlakatimizda bo'lib o'tgan Prezident saylovi jarayonida Respublika “Nuroniy” jamg'armasining barcha bo'limlaridagi yoshi katta oqsoqollar ishtiroki har qachongidan ham tantanavor bo'ldi. Qaysi saylov uchastkasiga bormaylik, otaxon va onaxonlarimizning ortida turgan minglab yoshlarni ko'rdik. Ulug'larning duosi bilan boshlangan saylov jarayonida ishtirok etish katta bayramga aylanib ketdi.



Zulfia MO'MINOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan madaniyat
xodimi

Saylovga tayyorgarlik jarayonida faxriylarimiz barcha mahallalar, tashkilotlar, o'quv yurtlari, fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalari, madaniyat saroylarida, sport maydonlarida ma'ruzalar qilishdi, davra suhbatlari o'tkazdi. Ular yoshlarga ushbu saylovning ahamiyatini tushuntirib berdi-lar.

Keksalarimizning yuzlaridagi mamnuniyat va shukronalik hissi yoshlarga ibrat bo'ldi

— Mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy jarayon bo'lgan O'zbekiston Prezidenti saylovida keksa avlod vakillari faollik bilan ovoz berdi, — deydi O'zbekiston faxriylari ijtimoiy qo'llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg'armasi Respublika bosh-qaruv raiisi, senator, O'zbekiston Qahramoni Sodiqjon Turdiyev. — Men ham poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi “Kamolot Darvoza” mahallasida joylashgan 386-saylov uchastkasida oila a'zolarim bilan qatnashib, munosib nomzodga ovoz berdim. Zero, yurt tinchligi, xalq farovonligi, keksalar e'zoi-yu, yoshlarning istiqbolli kelajagi yo'lida har birimizning bergan ovozimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, jannatmonand yurtimizning

barcha hududlarida bayramona kayfiyatda o'tgan ovoz berish jarayonida nuroniylar faol qatnashib, elimizning farog'atli, osuda hayoti, diyorimiz obodligi uchun duolar qildilar.

O'z konstitutsion huquqlaridan foydalanib ovoz bergan keksalarimizning yuzlaridagi mamnuniyat va shukronalik hissi yoshlarga ibrat bo'ldi. Shuningdek, saylovga kela olmaydigan otaxon va onaxonlarning uylariga saylov uchastkalari vakillari tashrif buyurib, ularning saylovda qatnashishiga barcha shart-sharoitlarni yaratgani nuroniylarimizni yanada mamnun etdi.

Biz esa mamlakatimizning ko'pgina viloyatlarida saylovoldi va saylov jarayonida qatnashib yoshi ulug', piri-badavlatlarimizning dil izhorlarini, ezu niyat va maqsadlarini qog'ozga tushirishga muvaffaq bo'ldik.

Yuz bilan yuzlashganlar

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanidagi Bahriobod mahallasida joylashgan saylov uchastkasida bo'lib, o'z nomzodiga ovoz berish uchun kelgan ikki dugona: 101 yoshli Mukarram aya Abdurahmonova va 100 yoshli Donoxon momoniy suhbat nafaqat bizga, balki o'sha yerda yig'ilgan barchaga birday manzur bo'ldi.

— Yoshligimizda ne-ne qiyinchiliklarni ko'rganmiz. Eh-he, bir burda nonga zor edik. Endi esa, Allohga ming shukr, hamma narsa badastr. Shuning uchun har bir kunga shukrona keltirib yashashimiz kerak. Hozir pensiyalarimizni ham o'z vaqtida uyimizga keltirib berishadi. Oylab pochtachini kutib sarg'ayishlar endi yo'q. Har hafta tuman mutasaddilari, mahalla faollari kelib, holimizdan xabar oladi. Ham-shiralalar esa sog'lig'imizni tekshirib darmon dorilar berib turadi. Hattoki, Namanganimizda o'tgan gullar bayramiga biz ikki dugonani olib borishdi. Bilasizmi, dunyoga kelib bunday go'zallikni birinchi bor ko'rishimiz. Umrimiz davomida biron marta gullar bayramiga ham bormagan ekanmiz. Biz keksalarni e'zozlaganlarning birlariga ming bersin. O'zbekistonimizga ko'z tegmasin ilohim, — deydi Donoxon momo.

— Erta tongdan saylov uchastkasining ochilishini kutib o'tirdik va birinchilardan bo'lib Prezidentlikka nomzod uchun ovoz berdik. Biz baxtli momolarmiz, shunday

to'kis sharoitlarda yashayapmiz. Allohga shukr. Ilohim yurtimiz tinchligiga, to'kinligiga ko'z tegmasin, — deya suhbatimizga qo'shildi Mukarram momo.

128 yoshli Huvaydo momoniy 60 dan ziyod chevarasi bor

128 yoshli Huvaydo momo Umarova Buviyda tumanidagi Qoraqum qishlog'ida istiqomat qiladi. Joriy yilning 9-iyul kuni onaxonning hovlisiga saylov uchastkasi komissiya a'zolari bilan birga mahalladoshlari, 7 nafar farzandi, 32 nafar nevara, 78 nafar evara va 60 dan ziyod chevaralari davrasida bizlar ham kutilamganda kirib bordik.

Hovli bir lahzada shodon kulgilar va bolajonlarning qiy-chuviga to'lib ketdi. Momoniy yurtga tinchlik, elga farovonlik, dasturxonlarimizga rizqu baraka, barcha-barchaga omad va tanu sog'lik tilab qilgan duolardan keyin yig'ilganlarning davomli qarsaklari ostida Huvaydo momo saylovda ovoz berdi.

— Nevaralarimning ismi yodimdan chiqadi, evaralarimning ismi yodimdan chiqadi, ammo kimga ovoz berayotgan bo'lsam, uning ismini yoddan chiqarmayman, — deydi Huvaydo momo.

Ha, keksalar duosi hamisha ijobatdir. Biz nafaqat O'zbekistonning, balki Yer sharining eng uzoq umr ko'ruvchilaridan biri bo'lgan Huvaydo momo Umarovanning duolari ijobat bo'lishiga, albatta, ishonamiz.

“Tinchlik so'zining qadrini biz, urush ko'rganlardan so'rang”

Qashqadaryodagi 89-saylov uchastkasiga kirib kelgan 103 yoshli otaxon Tosh bobo Shamsiyevning saylov uchastkasiga kelib ovoz berishi barchaga o'mak bo'ldi. Qizig'i va hayratlanarlisi shundaki, bobo komissiya a'zolarining “Uyingizga ovoz berish qutisini olib boraylik”, deganlariga rad javobini beribdi.

“Men o'zim tanlagan Prezidentimga saylov uchastkasiga borib ovoz berishga hali yana necha yil kuch topaman”, deydi ne-ne polvonlar kuragini yerga tekkingan Tosh bobo.

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Hamid Olimjon mahallasida yashovchi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi 103 yoshli Fayzullo ota Nurmatov ham o'zi tanlagan nomzodiga uyida ovoz berdi.

— 3 yil oldin 100 yoshga kirganim uchun davlatimiz tomonidan menga “Shuhrat” medali berildi. Har yili 9-mayda pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alalar olaman. Mana bu yil ham 18 million pul va yana bir qancha sovg'alarni oldim, — deydi Fayzullo Nurmatov. — “Tinchlik” so'zining qadrini biz, urush ko'rganlardan, yonidagi sheriklari dushman o'qlaridan parchalanib ketganlardan so'rang. Qahatchilik nimaligini, bir burda qora nonga zor bo'lganlar, yo'qchilikda kunjara yeb shishib nobud bo'lganlar-u hali to'y ko'rmay, chimildiq ko'rmay shahid ketganlarni o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Men O'zbekistonimizning tinchligi, yoshlarimizning baxtu saodati, biz, nuroniylarning shukronaga to'la hayoti uchun javob bera oladigan nomzodga ovozimni berdim.

“Saylovda ovoz berdim, tinchlik uchun, baxt uchun”

Andijonning Asaka tumani Qayrag'och qishlog'idan saylov uchastkasiga kelib ovoz bergan nuroniylar, nafaqadagi ijodkor o'qituvchi 90 yoshli Olimjon Rahimovning ovoz berish jarayonidan so'ng saylov haqidagi she'ri barcha nuroniylarning qalb istagi bo'lib yangradi:

Saylovda ovoz berdim,
Tinchlik uchun, baxt uchun.
Yurtida rohat, farog'at
Yaxshi hayot naqd uchun.
Saylovda ovoz berdim,
Xushnud chog'lari uchun.
Yangi O'zbekistonning,
Yangi bog'lari uchun.

Yurtimizda hamisha katta to'ylar, ulkan quriltishlar, chigit ekishu baraka urug'ini sochishdek xayrli ishlar oldidan nuroniylarning duolari olinadi. Respublikamizda Prezidentlikka saylov jarayoni ham donishmand keksalarimizning oq fothalari va faolligi bilan o'tgani ezgu fikrimizning ifodasi bo'ldi.



MUNOSABAT

HAR BIR OVOZ MAMLAKAT KELAJAGINI BELGILAYDI

Bu yil uchinchi bor Prezident saylovida qatnashib, ovoz berdim. Har gal mazkur siyosiy jarayonni katta ishtiyoq bilan kuzataman. Nomzodlar dasturini obdon o'rganaman. Chunki mening tanlovim shaxsiy bo'lgani bilan uning natijasi, samarasi nafaqat men, balki oilam, farzandlarim, o'quvchilarim, mamlakatim kelajagi uchun juda katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda, bu galgi saylovda ham faol bo'lishga harakat qildim. O'z pozitsiyamdan kelib chiqib, munosib nomzodga ovoz berdim.

Yosh pedagogman. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar — yoshlar siyosati, ta'lim tizimidagi yangilanishlar meni behad quvontiradi. O'quvchilik,

talabalik yillarimizni eslayman: uyuma-uy “ko'tarimchilik” qilib yurib, kiyim-kechak sotgan yoki oliygoh maoshi bilan oilasi ta'minotini qila olmay xorijga yollanma



ishchi sifatida ketgan o'qituvchilar bo'lgani haqiqat.

Shukrki, biz yangi O'zbekiston islohotlari davrida o'z faoliyatimizni boshladik. Bugun mamlakatimizda o'qituvchilarga e'tibor kuchaygan. “Zamonaviy pedagog” imiji yaratildi. Darsliklar rivojlangan davlatlar tajribasi asosida tubdan yangilanmoqda. Sharoit va imkoniyatlar bizni o'z ustimizda ishlashga, salohiyatimizni namoyon qilishga undaydi. Meni quvontirgani, bizga motivatsiya beradigan, zavq bilan dars berishga undaydigan sabablar bisyor. Mana shu zavq pedagogga quvvatdir. Zavqlanib o'tilgan dars mazmunli bo'ladi, o'quvchilarga bilim beradi. Maoshimizga qo'shimcha ustamaralar olayotganimiz ham davlatimizning bizga g'amxo'rliqi isbotidir. Inson qadr topsa, qalbi shukronalikdan fayziyob bo'ladi, yangilanishlar, tashabbuslar uyg'onadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq normalar mustahkamlangani bizni yanada ruhlandiradi. Bosh qonunimizga ko'ra, o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy-madaniy salohiyatini saqlash va boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi, davlat

o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga g'amxo'rlik qilishi barchamizni quvontirdi. Bu jamiyatimizda ustoz-pedagoglarning sha'ni va obro'sini yanada yuksaltirish, hurmat-ehtiram ko'rsatish kabi azaliy qadriyatlarimiz bardavomligini ta'minlashga zamin yaratadi.


O'zbekiston yangi yo'lni boshladi. Islohotlar yanada katta quvvatda davom etishi kerak. Farzandlarimning, o'quvchilarimning orzu va maqsadlari, qolaversa, bizning kelajagimiz yorug'ligi yetakchi lider tashabbuslariga, qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Men ana shunday tamoyildan kelib chiqib, o'z tanlovimni qildim.

Saylov jarayoni ko'tarinki ruhda o'tganiga barchamiz guvoh bo'ldik. Kun issiq bo'lishiga qaramay, saylov uchastkalarining salqinlatkich, ichimlik suvlari bilan ta'minlangani, faollarning har bir fuqaroga alohida yondashuvi va e'tibordan ruhlantirish. Ovoz berish jarayoni tartibli rejalashtirilgan. Jarayonda talabalar, ilk marta saylovda qatnashayotgan yoshlardan to'liq otaxon va onaxonlargacha faol qatnashdi. Hatto o'zaro suhbatlardan ularning nomzodlar faoliyati, dasturlari bilan yaqindan tanishganini sezib, quvonasiz. Yurtodoshlarimizning saylovdagi faol ishtirokini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarga nisbatan yuksak munosabati deyish mumkin.

Mashhura OTAJONOVA,
Farg'ona viloyati Buviyda
tumanidagi 16-maktab o'qituvchisi

TARAQQIYOT YO'LI

“YANGI O‘ZBEKISTON: TARAQQIYOT, INNOVATSIYA VA MA’RIFAT”

XALQARO SHERIKLIK
TASHABBUSLARI HAFTALIGIYANGI O‘ZBEKISTON:
ISLOHOTLAR DUNYO E'TIROFIDAAbdulaziz ABDULLAYEV,
siyosatshunos,
xalqaro munosabatlar
bo'yicha ekspert

Xalqaro tadbirlarda 60 ta davlat va 5 ta xalqaro tashkildan jami 400 dan ziyod taniqli siyosat va jamoat arboblari, yirik biznes vakillari va ekspertlar, jumladan, 203 nafar xorijiy tashkilot, kompaniya va assotsiatsiya boshliqlari, 70 dan ziyod nufuzli universitetlar, tadqiqot markazlari rektorlari, prezidentlari, direktorlari va boshqalar ishtirok etdi. Shuningdek, 10 mingdan ziyod milliy siyosatchi, olimlar, biznes hamjamiyati, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari qatnashdi.

Birgina yangi "Ivet xoll" markazida o'tgan xalqaro anjumanlarda 17 ta umumiy yig'ilish va qator uchrashuvlar tashkil etilib, 160 dan ortiq, jumladan, 107 nafar xorijiy ekspert ma'ruzalar bilan ishtirok etdi. Xususan, tadbirlarda "VEON" kompaniyasi davlat organlari bilan hamkorlik bo'yicha maslahatchisi, Serbiya sobiq Prezidenti Boris Tadic, Latviya Respublikasining sobiq Prezidenti Raymonds Veyonis, Gruzia sobiq Prezidenti Georgiy Margvelashvili, Qirg'iz Respublikasi sobiq Bosh vaziri Djuumart Otarbayev, Moldova Respublikasi sobiq Bosh vaziri Kiril Gaburichi, BMTning Xalqaro elektraloqa ittifoqi sobiq bosh kotibi (2007-2014) Hamadun Ture, Ruminiya raqobat organi prezidenti Bogdan Kirisu, Tashqi siyosat bo'yicha AQSH Milliy qo'mitasi prezidenti va Bosh direktori Syuzen Elliott, "NCAFP "ACWA Power" kompaniyasi ijrochi vitse-prezidenti Abid Malik, "ACIR" kompaniyasining Markaziy Osiyo mintaqaviy direktori Migel De La Kruz, "Smart Workers Ltd" kompaniyasi bosh direktori Djan Xavunun, "Japan Regio Sahoo Association" kompaniyasi prezidenti Norio Amemiya, "Work Global Canada Inc" kompaniyasi prezidenti Pol Shellyi va boshqalar qatnashdi. Shuning o'zi ham ushbu tadbirlar ganchalik nufuzli ekanini ko'rsatib turibdi.

Tadbirlarda mamlakatimizda so'nggi 6,5-yilda yuzaga kelgan mutlaqo yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy makon, O'zbekistondagi demokratik islohotlar, ularning mohiyati, erishilgan yutuqlar va navbatdagi dolzarb vazifalar, davlat tashqi va ichki siyosatining ustuvor vazifalari atroflicha muhokama qilindi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni va mavqei ortib borayotgani, yangi O'zbekiston — inson qadri, huquq va manfaatlari himoyalangan ijtimoiy davlat, ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanib borayotgani qayd etildi. O'zbekiston-

ning dunyoga, dunyoning esa O'zbekistoniga ochilgan alohida urg'u berildi.

Xorijlik ma'ruzachilar tomonidan O'zbekiston Markaziy Osiyoning yangi "kuchli yo'lbars"iga, mintaqamiz barqaror rivojining drayveriga aylanayotgani yuksak baholandi.

Yangi O'zbekistonning global va mintaqaviy tashabbuslari nafaqat Markaziy Osiyo, balki boshqa turli mintaqalarning barqaror rivoji va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilayotgani ta'kidlandi. Ushbu tashabbuslar asosida birgina BMT Bosh Assambleyasining 10 dan ziyod rezolyutsiyasi qabul qilindi e'tirof etildi. Zero, BMT tomonidan dunyoda juda kamdan-kam davlat rahbarlarining 6 yil ichida 10 tashabbusi bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Quyida xorijiy ishtirokchilar tomonidan bildirilgan ayrim xulosalarni keltiramiz.

Birinchi. Yangi O'zbekistonda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning bosh bog'lovchi bo'g'inini, o'zagini yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun", "Avval inson — keyin jamiyat va davlat", "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" g'oyalari tashkil etadi. O'zbekiston tarixda ilk marotaba BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo bo'lishi — mamlakatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirofidir.

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" g'oyasi, har qanday shaxsning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini, boshqa daxlsiz huquqlarini joyiga qo'yish, ulug'lash



“ EKSPERTLAR TA’KIDLASHICHA, SO’NGGI BESH YILDA O‘ZBEKISTON GLOBAL IQTISODIY ERKINLIK INDEKSIDA 33 POG‘ONAGA KO‘TARILIB, SARMOYA VA MOLIVAVIY ERKINLIK BILAN BOG‘LIQ VAZIYATNI SEZILARLI DARAJADA YAXSHILADI.

Ikkinchi. Yangi O'zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta'minlash — amaldagi islohotlarning mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Ekspertlarning yakdli fikriga ko'ra, **Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat** tamoyilining konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanishi, inson qadri yonada ulug'lash, hozirgi va kelgusi avlodlarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan alohida e'tirof etish zarur. Zero, bu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Bunday davlatda barqaror rivojlalishning muhim maqsadlari bo'lmish

orasida munosib o'rinni egallashiga xizmat qilmoqda.

Uchinchi. Yangi O'zbekiston — tashqi dunyoga ochiq va investitsiya kiritish uchun jozibador mamlakat.

Xorijiy ekspertlar milliy iqtisodiyotimizni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberalashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rib kelinayotganiga yuqori baho berdi.

Ularining fikriga ko'ra, jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan qiyinchiliklarga qara-



hamda mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotini, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya va sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoitini yaratishni nazarda tutishi alohida e'tirof etildi va yuksak baholandi. Ekspertlar ta'kidlashicha, qatorasiga beshinchi yildirki, Qonun ustuvorligi indeksida davlatlar reytingi jahon miqyosida pasayib borayotganiga qaramay, O'zbekiston 2022-yilda ko'rsatkichi oshayotgan davlatlar qatoriga kirdi va 7 pog'ona ko'tarilib, 140 davlat orasida 78-o'rinni egalladi.

Bugungi kunda inson qadri ulug'lanadigan yangi O'zbekiston g'oyasini hayotga tatbiq etish — umummilliy harakatga aylangan. Fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, turli sohalarining ekspertlari bilan uchrashuvlar fuqarolar islohotlarni nafaqat to'la qo'llab-quvvatlayotgani, balki yangi O'zbekistonning o'z kuchi va iqtidoriga tayanib barpo etayotgan faol va jipslashgan ijtimoiy kuch ekanini namoyish etmoqda.

— ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash, kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligiga ko'maklashish, ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy sohalarining muntazam taraqqiy etishini ta'minlash, samarali ijtimoiy sug'urta ta'minotini yo'lga qo'yish, jamiyatda keskin ijtimoiy farqlarni va ijtimoiy tengsizlikka yo'l qo'yimaslik, aholiga munosib turmush sharoiti yaratish kabi vazifalarga ustuvor ahamiyat beriladi.

Xorijlik ishtirokchilar e'tirof etishicha, agar 2018-yilda mamlakatning ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga yo'naltirilgan xarajatlari 35 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 105,5 trillion so'mga yetdi (3 barobar oshgan). 2023-yilda ta'lim sohasi xarajatlari 58,4 trillion so'm, sog'liqni saqlash sohasiga 28,4 trillion so'm, madaniyat sohasiga 2,5 trillion so'm, sport sohasiga 2,3 trillion so'm va fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 1,8 trillion so'm yo'naltirish belgilandi.

Bu so'nggi besh yilda ijtimoiy siyosatni izchil mustahkamlash imkonini berdi va yangi O'zbekiston "ijtimoiy davlatlar"

masdan, O'zbekistonda 2017-2022-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotning (YAIM) o'rtaacha yillik o'sishi 5,1 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM hajmi 2020-2021-yillarda avjiga chiqqan "COVID-19" pandemiyasi sharoitida ham tadrijiy ravishda 2018-yildagi 1597 dollardan 2022-yilda 2255 dollargacha oshganki, bu kamdan-kam mamlakatlarda kuzatiladigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Natijada amalga oshirilgan ishlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, 2022-yilda O'zbekiston **Ochiq ma'lumotlar reytingida 191 mamlakat orasida 40-o'ringa** va Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida 1-o'ringa ko'tarildi.

To'rtinchi. Yangi O'zbekiston — insonning ekologik huquqlari ta'minlanadigan, mamlakat tabiiy resurslari asrab-ayaylanib, oqilona foydalanib, barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan davlat.

Dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (*tabiiy gaz, neft*) 60-150 yil ishlashga yetadi. Shu sababli, ko'p davlatlarda energiya xavfsizligini

ta'minlash va energiya samaradorligini oshirish siyosati qo'llanilmoqda. Energetika butun dunyoda dolzarb masalaga aylanib borayotgani bois, salohiyatli davlatlar uning muqobil yo'llarini izlamqda. Bugun jahon energetikasida "yashil energetika" ulushi qariyb 30 foizga yetgan, ayrim Yevropa davlatlarida 80-90 foizdan oshgan.

Tadbirida ishtirok etgan energetika sohasi mutaxassislari va olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va "yashil energetika" siyosatini amalga oshirish, ya'ni qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol va suv energiyasidan foydalanishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi 4,5-yilda O'zbekistonda issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xorijiy investorlar bilan umumiy qiymati 16 milliard 62 million dollarga teng 34 ta bitim imzolandi.

Beshinchi. Yangi O'zbekistonning tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularga turli imkoniyat hamda imtiyozlar berish, samarali faoliyat uchun zarur kafolatlar bilan ta'minlash borasidagi ishlari ham mutlaqo yangicha.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo'nalishida O'zbekistonda so'nggi olti yilda amalga oshirilgan islohotlar barchani quvontirishi tabiiy. Misol uchun, 2017-2022-yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda huquqlarini himoya qilish sohasida jami 3087 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Shuning o'zi tizimdagi ishlar ko'lamini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Darvoqe, ekspertlar ta'kidlashicha, so'nggi besh yilda O'zbekiston Global iqtisodiy erkinlik indeksida 33 pog'ona ko'tarilib, sarmoya va moliyaviy erkinlik bilan bog'liq vaziyatni sezilarli darajada yaxshiladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishidagi sa'y-harakatlar ham inson qadri ulug'lash, mamlakatda ishbilarmonlik hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda.

Oltinchi. Yangi O'zbekiston — raqamli jamiyat qurish, barcha sohalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiyalardan unumli foydalanishga intilayotgan mamlakat. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoq va sohalarida, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ekspertlar ta'kidlashicha, ajablanarlisi shundaki, O'zbekistonda har yili IT-xizmatlari eksporti hajmi o'rtaacha 2 barobar ortmoqda. Elektron hukumat sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qator xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholalanmoqda. Xususan, o'tgan yili O'zbekiston BMTning "Elektron hukumat" reytingida 18 pog'ona ko'tarilib, "tez rivojlanayotgan davlatlar" qatoriga kirdi, Jahon bankining "Davlat texnologiyalari yetukligi" reytingida esa mamlakat 37 pog'ona ko'tarilib, dunyoda 43-o'rinni egalladi.

Yettinchi. Yangi O'zbekiston — inson kapitalini yuksaltirish, "innovatsion rivojlanish", "bilimlar iqtisodiyoti"ga o'tish orqali **Uchinchi Rennessans** asoslari mustahkamlanayotgan davlat.

Xorijiy ekspertlar O'zbekiston **Inson taraqqiyot indeksini — 2022** bo'yicha 0,727 indeksi qiymati bilan 2020-yil hisobotiga nisbatan o'z reytingini besh pog'ona yaxshilaganiga e'tibor qaratdi. Zero, so'nggi yillarda mamlakatda ta'lim sohasini tubdan isloh etish, uni eng rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi darajasiga ko'tarishga qaratilgan qator strategiya va konsepsiyalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Natijada birgina maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 2017-yilga nisbatan 2,5 barobar oshib, 27,7 foizdan 71,8 foizga yetkazildi. Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 milliondan ortiq bola tarbiyalanmoqda. Bunga sohaga xususiy tadbirkorlikning kirib kelishi, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilgani, davlat-xususiy sheriklik insti-

tutidan keng foydalanish chora-tadbirlari asos bo'lmoqda.

Xorijlik ekspertlar mamlakat taraqqiyoti maktabdan boshlanishiga alohida urg'u berdi va bu g'oya yangi O'zbekiston barqaror rivojining harakatlaniruvchi kuchi ekanini bunda maktab sohasini isloh etish borasidagi chora-tadbirlar ahamiyati yuksakligiga e'tibor qaratdi. Jumladan, bugungi kunda 10,1 mingdan ziyod umumta'lim maktabi, 14 ta Prezident maktabi, 166 ta ixtisoslashtirilgan maktab, 219 ta Barkamol avlod bolalar maktabi faoliyat yuritayotgani va ularda 6,4 million o'quvchi ta'lim olayotgani, 527 ming o'qituvchi ta'lim berayotgani yangi O'zbekiston yutuqlari sifatida ko'rsatib o'tildi.

Oliy ta'lim tizimida asosiy e'tibor mamlakatimiz yoshlari ta'lim olishi uchun keng imkoniyat va zarur sharoit yaratishga qaratildi. Natijada o'tgan 6 yil mobaynida oliy-gohlar soni 77 tadan 210 taga yetkazildi, ularga qabul 3,5 barobar ortdi. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va xususiy sektorni jalb qilish orqali 65 nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni 30 taga, davlat oliy ta'lim muassasalari 115 taga yetkazildi.

Mutaxassislar O'zbekistonda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 39 foizga oshirilgani — mamlakatda inson kapitalini yuksaltirish orqali "bilimlar iqtisodi" va "innovatsion rivojlanish" yo'lidan sobitqadamlik bilan ilgariilashga xizmat qilishini ta'kidladi.

So'nggi olti yilda sohada amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida 2022-yilda O'zbekiston **Global innovatsiyalar** indeksida to'rt pog'ona ko'tarilib, umumiy reytingda 82-o'rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida Hindiston va Erondan keyin 3-o'rinni egallagan.

Sakkizinchi. Bugun ochiqlik va oshkorlik, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan va hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, xorijiy ishtirokchilar: — xalqaro haftalikni o'tkazish aynan fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan tashabbus qilingani;

— "CNN" xalqaro media kompaniyasi haftalikning media hamkori sifatida ishtirok etgani, tadbirlarning "Euronews", "Rossiya-24" va boshqa 70 dan ortiq nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalarida 400 dan ziyod jurnalist va blogerlar tomonidan keng yoritilgani, tahliliy materiallar 20 dan ortiq tillarda tarqatilgani;

— tadbirlar Buyuk Britaniya parlamenti Lordlar palatasi a'zosi, sobiq madaniyat va xalqaro taraqqiyot vaziri Lord Uorton, "Business New Europe" xalqaro nashriyotining bosh muharriri Ben Aris, xalqaro jurnalist Stiven Koul, teleboshlovchi va jurnalist Ali Aslan kabi tanilgi xorijiy moderatorlar tomonidan olib borilganiga alohida e'tibor qaratdi.

Bu esa davlatning tegishli ochiqlik va oshkorlik siyosatining in'ikosi, "mevasi" sifatida e'tirof etildi.

Tadbirlar ishtirokchilarining umumiy fikriga ko'ra, ushbu ko'rsatkichlarning barchasi bugungi kunda yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy makon yuzaga kelganidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizdagi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega jarayonlarni eng yuksak xalqaro talablar asosida o'tkazishga asos bo'ldi va shunday bo'lib qoladi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekistonni barpo etish shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asosga ega, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyat taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishiga mos, milliy manfaatga to'la javob beradigan obyektiv zarurat ekanini yari bir bor e'tirof etildi. Tadbir ishtirokchilarining umumiy fikriga ko'ra, yurtimizda ulug' niyatlarni bilan poydevori qo'yilayotgan yangi Uyg'onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda, bu bo'lamshumol, samarali voqea-hodisalarga to'la davr kelgusi avlodlarga munosib meros qoldirishi shak-shubhasiz.



ZAMONAVIY TIZIM IMKONIYATLARI



Inson moslashuvchan. Odatda erishilgan muvaffaqiyatlarga oson ko'nikamiz, o'tgan kunlar, u kunlar bilan kechgan qiyinchiliklar yodimizdan tez ko'tariladi. Aslida, har bir ulkan natija, islohot zamirida kuchli iroda, mashaqqatli yo'l bor.

OLIIY TA'LIMGA SAMARALI YONDASHUV

Bir universitet misolida

2016-yilni bir eslaylik. Davlatimiz rahbari Prezident lavozimiga kirishgan ilk kunlardan qoʻyimizdagi barcha sohada katta oʻzgarishlar boshlandi. Tashabbuslar islohotlarga yoʻl ochdi. Xususan, yoshlar siyosati va taʼlim sifatiga davlat eʼtibori kuchaydi. Shu maʼnoda, bugunning yoshlarini yangi Oʻzbekistonning baxtiyor yoshlari, deiyishga toʻliq asoslar bor. Buning isbotini soʻnggi yetti yilda barcha sohalar singari oliy taʼlim tizimidagi yoshlar hayoti misolida ham aytish, kuzatish mumkin.

A portrait of a man with short dark hair, wearing a dark blue checkered suit jacket, a white shirt, and a dark tie. He is looking directly at the camera with a neutral expression. The background is a solid light blue.

A group of young women are seated in a lecture hall, listening attentively. They are dressed in casual attire, including patterned tops and skirts. The setting is a tiered wooden seating area, typical of a university classroom or lecture hall.

A photograph showing three women in a brightly lit indoor space, likely a museum or gallery. The woman on the left, wearing a white shirt, holds a red piggy bank. The woman in the center, wearing a black blazer over a patterned top, holds a woven basket filled with coins. The woman on the right, wearing a white and black jacket, is looking at a small object in her hands. In the background, other people and museum displays are visible.

Prezidentimizning **“Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”**, **“Uchinchi Rennassans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shaman!”** degan yuksak maqsadlar farazdalarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayotiy va faoliyati mazmuniga aylanib bo‘rayotgani bilan har qancha faxrlanilsa **“arziydi”**, degan ishonchini Buxoro davlati universiteti yoshlari o‘tgan o‘quv yilining o‘zida yuzlab yutuqlari bilan oqlashga harakat qildi. Masalan, bir talabamiz Prezident davlat stipendiyasi, sakkiz talabamiz Navoysi, bir talabamiz Islom Karimov, ikki talabamiz Mirzo Ulug‘bek, bir talabamiz Kamoliddin Behzod, yana bir talabamiz Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi, to‘rt talabamiz rektor stipendiyalari hamda bir talabamiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrinidori bo‘ldi. Shuningdek, bir talabamiz **“Ulug‘bek vorislari”** tanlovi respublika bosqichi g‘olibi va 400 dan ortiq talaba-yosh xalqaro, mamlakat va viloyat miqyosidagi intellektual, ilm-fan, musiqasanoat, sport, turizm, axborot texnologiyalari sohasida o‘tkazilgan olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalarda ishtirok etib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritdi.

qoplab berilishi bilim olishga intilayotgan xotin-qizlar safini kengaytirayotir. Bu boradagi imtiyozlarni sanasak, salmog'i ortib boraveradi.

“Besh tashabbus olimpiadalari” toʻrtinchi marʼaba bugungi kunda yigʻit-qizlar iqtidorini yuzaga chiqarishning asosiy daryosiga aylangan. Bugun universitetdagi mavjud kovorking, bandlik, volontyorlar markazlari, “Zakovat”, “Quvnoqlar va zukolar”, “Munozara”, “Talabalar teatr studiyasi”, “Talabalar sporti” kabi oʻnlab klublar, ellikdan ortiq fan, madaniyat, sanʼat, sport, intellektual toʻgaraklar talaba yoshlarining sevimli maskaniga aylangan.

Buxoro viloyatining shahar va tumanlari kesimida, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" yoshlari, birlashaylik!". "Bilim va tafakkurimiz shu el uchun, shu yurt uchun!", "Biz kelajak bunyodkorimiz!" kabi shiorlar ostida o'tkazilgan yoshlar oyligi doirasidagi tadbirlar soni va salmog'i juda keng bo'ldi. Ushbu tadbirlarda Buxoro davlat universiteti talaba yoshlari ishtirokida 500 ga yaqin tadbir viloyatdagi shahar va tumanlar, mahalla, korxona, tashkilot va muassasalar hamkorligida yuqori saviya, kayfiyatda o'tkazilganini e'tirof etish o'rindir.

Bugun Buxoro davlat universiteti yoshlarining har biri jonajon yurtimizdagi islohotlardan mamnun, o'ziga, kelajagiga ishonadi. Maqsadi oliy — kelajagi porloq yangi O'zbekistonni barpo etish uchun barcha kuch q'ayrati, shijoatini safarbar etish.

Yangi O'zbekistondagi ulkan islohotlarning eng cho'qqisida doim yoshlar masalasi birinchi darajali vazifa bo'lib qolib qo'yilgan. Buning isbotini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda "Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi", deb belgilab qo'yilganida ham ko'rish mumkin. Bu esa davlatning yoshlar oldidagi mas'uliyatini yanada kuchaytiradi, yangi loyihalar, yangi vazifalarni amalga oshirish uchun asos va turki bo'ladi.

MUTOLAA MADANIYATI

“ZEHN QO‘YSANG BILIMGA, ilm tomar dilingga”

Bolaligimiz hamrohi “G‘uncha” yodingizdami? Har oy pochtachi amaki keltirgan suratli jurnaligizni tomosha qilganingiz, aka-opalaringiz bilan qiziqib o‘qiganingiz-chi? Gazeta va jurnallar har birimizga do‘st, o‘rtiq, qolaversa, do‘st va o‘rtiq topib beruvchi vosita ham edi.



Umida ABDUAZIMOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi

Ilk she'rim chiqqanda, uzoq-yaqindagi tengdoshlarimdan ko'plab xat olganim, ayrimlari bilan hanuzgacha qo'ng'iroqlashib turishim ham rost gap. O'sha kezlari oilamizga ikkita “G‘uncha”, uchta “Gulxan” va bitta bolalar gazetasi kelardi. Ustozlarimiz bot-bot matbuotda e'lon qilingan maqola va xikoyalardan so‘rab qolardi. Oqibatda tilimiz burrolashib, xotiramiz mustahkamlanib borardi.



Meni o‘ylantirgani — bugun farzandlarimiz oltin davrini smartfon, kompyuterdagi turli ko‘ngilochar o‘yinlar, yuzaki ma‘lumotlar, oldi-qochdi safsata va yolg‘on xabarlariga sarf etyapti. Bolalar jumallari, gazeta, kitoblari kirib boradigan xonadonlari soni avvalgidек emas. Yangi asr bizdan o‘zgacha fidoyilikni, mutolaa uchun jon kuydirishni talab qilmoqda. Go‘yoki XX asr boshlarida millat fidoyilari — jadid bobolarimiz fikrini band etgan masala bugun bizning ham oldimizda ko‘ndalang turgandek.

Uch yil davomida maktabda ma‘naviyatchi bo‘lib ishladim. Qaysar, o‘zibilarmon, telefon o‘yinlariga sho‘ng‘igan bolalarni ko‘rib, rosti dilim og‘ridi. Bugun ota-onalar mutolaa uchun mablag‘ni qizg‘onadigan bo‘lib qolgan. Uyali aloqa, undagi internet o‘yinlari uchun haq to‘lash oddiy holga aylandi. Ammo har maktabga bitta (har sinfga bitta qayoqda!) gazeta-jurnalga obuna bo‘ling, deb eshik taqillatib kelganlarni ko‘rib, rosti uyaydim. Bolalikda obuna bo‘lgan jurnallarimizning yangi soni keladigan kunga intiq bo‘lib yo‘l qaraganimiz yodimga tushdi. Bugunning aksariyat bolasi mana shunday hayajon, shirin tashvish yo‘qligini o‘ylab yuragim achishdi.

Kichkinagina Singapur davlatining yuksalib, dunyolarga chiqishida bilimdon bolalari rol o‘ynagan ekan. Chet o‘kalar-

gan g‘oyalarga tayanishimiz lozim. Jadid ma‘rifatparvari o‘z davrida “islohi makotib, islohi madoris, islohi idorai ruhoniya, islohi axloq, islohi hukumat zaruriyati aql, naql, shar’ va zamon muqtazosi” ekanini chuqur anglab butun harakatlarini shunga yo‘naltirgan. Xususan, Abdulla Avloniy maktab va madrasa, usuli ta‘lim va tadris islohiga katta kuch sarflab “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir” degan qarashda sobit bo‘lgan.

Xalqimizda “Zehn qo‘ysang bilimga, ilm tomar dilingga” degan maqol bor. Kelajak avlodning qalbi ilm nuri bilan to‘lishi uchun amalga oshirilgan ishlar, albatta, o‘z mevasini beradi. Bolalar nashrlari har bir xonadonga kirib borsa, kelajak avlodning telefon, kompyuter qaramiga aylanib borayotgani haqidagi xadiklar kamayar, qo‘rquv o‘rnini ishonch hissi egallaydi. Ular “onlayn do‘sti” bilan emas, kitob, gazeta, jurnallar bilan dillashadigan bo‘lardi. Quvonarlisi, yana nashrlarga o‘quvchilar tomonidan xatlar kela boshlaydi. Bolalar yozishmalariga suyangan gazeta va jurnallar esa jonlanadi. Kitobxonlikka yo‘l ochiladi. Tezroq bolalarimizga o‘z gazeta va jurnallarini beraylik. Bu ezuq maqsadga qunt va izchillik bilan yondashib erisha olamiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

Sayyohlik yetakchi tarmoqqa aylanmoqda

BUGUNNING GAPI

Mamlakatimizda turizm iqtisodiyotimizning muhim va zarur yo‘nalishlaridan biriga aylanib bo‘ldi. Bu bejiz emas, albatta. Turizm hududlar infratuzilmasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish, xalqimiz madaniyati, urf-odati, tarixi va etnografiyasini jahonga tanitishda muhim ahamiyatga ega.



Jizzax viloyati qulay geografik joylashuvi, yirik suv havzalarining mavjudligi, iqlimining o‘ziga xosligi, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning noyob tarmog‘i va landshaftlari, shuningdek, qadimiy aholi yashash maskanlari, ularning o‘ziga xos udumlari, turmush tarzi bilan ekologik turizmni rivojlantirish va ommalashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi.

Bugungi kunda viloyatda 92 ta ziyo-ratgoh va tarixiy obyekt, 1 ta madaniy ko‘ngilochar ekopark, 5 ta tog‘li va o‘rmon xo‘jaligi, 45 ta gastronomik eko agroturizm obyekti, 677 ta hunarmandchilik ustaxonasi va boshqa turizm obyektlari mavjud. Bir vaqtning o‘zida 6340 mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega 232 ta joylashtirish vositalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Viloyatning turizm salohiyatini o‘rgatish, hudud va uning tarixi, turistik obyektlari va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida turli tillarda kontentlar va turpaklar yaratish, ularni targ‘ib qilishda yordam ko‘rsatish, professor hamda o‘qituvchilarning izlanishlari, talabalarning turizm sohasidagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini kengaytirish, hududlardagi aholi tomonidan turizm xizmatlarini ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlikda chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

So‘nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar soni oshib boryapti. Jumladan, o‘tgan yili Jizzax viloyatiga 12 800 xorijlik sayyoh tashrif buyurgan. Bu esa 2016-yilga nisbatan 5,1 barobar ko‘p. Shuningdek, 2022-yilda turizm xizmatlari eksporti 2,6 million dollarni tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 5 barobar oshgan.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarni viloyatning turistik salohiyati va mavjud resurslar bilan qiyoslasak, bu unchalik katta natija emas. Agar sayyohlik yo‘nalishlari ko‘payib, xizmatlar sifati yanada yaxshilansa, raqamlar bundan bir necha barobar oshishi mumkin.

— Jizzax viloyatida ham turizm sohasi izchil rivojlanyapti, — deydi viloyat madaniyat va turizm boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Dilorom Xolmirzayeva. — O‘zbekiston Prezidenti raisligida joriy yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini jadal rivojlantirish yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida bir qator



vazifalar belgilab berilgan edi. Ushbu vazifalar ijrosi doirasida yaqinda 12 nafar germaniyalik turoperatorni viloyatga taklif qildik. Ular Zomin va Forish tumanlarida bo‘lib, turizm salohiyatini yaqindan o‘rgandi. Zomin tumanida sayyohlar uchun yaratilgan sharoitlar, muqaddas qadam-jolar, qator qo‘shma korxonalar, “Sufa” turistik dam olish maskani va u yerdagi



go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish imkonini bermoqda.

Ekologik turizm mamlakatimizda istiqbolli sohalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham turizmning ushbu yo‘nalishini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Ekoturizmni rivojlantirish, o‘z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni va noyob tabiiy hududlarni saqlash mahalliy aholi daromadlarini oshirish uchun xizmat qiladi.



Aytish mumkinki, xorijiy sayyohlarni, jumladan, mahalliy sayyohlarimizni ham shaharning zamonaviy qiyofasi, shinam mehmonxonalari emas, balki chekka hududlardagi ko‘z ilg‘amas tabiat go‘zalliklari, so‘lim va bahavo maskanlari, qishloq aholisining yashash tarzi, ular tashkil etgan mehmon uylari ko‘proq qiziqtiraypti. Shu jihatdan olib qarasa, viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun juda katta tabiiy resurslar bor.

Turkiston tog‘ tizmasining viloyat hududidagi Qizilmozorsoy, Ko‘lsoy, Supa, Chor-tangi, Yettikechuv, Qashqasoy, O‘rikli soy kabi ekoturistik resurslarga boy joylarning atrofi xilma-xil tabiiy archa o‘rmonlari bilan qoplangan.

E‘tiborli tomoni, mavjud archazorlarni saqlab qolish, ko‘paytirish va noyob hayvonot olamini muhofaza qilish maqsadida O‘zbekistonda birinchi bo‘lib Zomin davlat qo‘riqxonasi tashkil qilingan.

Qo‘riqlanadigan hududda g‘oyat noyob va xilma-xil hayvonot dunyosi yashaydi. Bu joyda qushlarning 134, sut emizuvchilarning 37, sudralib yuruvchilarning 39 turi ro‘yxatga olingan. Qo‘riqxonada hududda yashaydigan Turkiston silovsini, oq timoqli ayiq, sibir echkisi O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitob”iga kiritilgan. Qo‘riqxonaning so‘lim ekologik go‘shalari juda ko‘p. Eng tomoshabop shunday joylardan biri Qizilolmasoy hududida joylashgan baland va g‘aroyib ko‘rinishdagi qizilqoya toshlaridir. Ular tabiiy nurash jarayoni ta’sirida turli shakl va ko‘rinishlar paydo qilgan. Mahalliy xalq bu g‘aroyib ko‘rinishdagi toshlarning tashqi qiyofasini inson tanasiga o‘xshatib, ularni “qirqqiz” deb ataydi.

Baxmal tumanidagi archazorlar bilan qoplangan Vadigan, Bog‘imozor, Ayiqsoy, Boyqo‘ng‘irsoy, Jum-Jumsoy kabi daralar ham viloyatning eng so‘lim, betakror tabiat landshaftlari ro‘yxatida turadi.

Viloyatning g‘arbiy qismi — Nurota tog‘ tizmasining shimoliy qiyaliklarida 1975-yili Nurota tog‘ o‘rmon davlat qo‘riqxonasi tashkil qilingan. Qo‘riqxonaning asosiy vazifalari noyob hayvon — yovvoyi qo‘y (Seversov qo‘yi) — arxar va yong‘oqzor o‘rmonlari saqlab qolish hisoblanadi. E‘tiborlisi, mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun ushbu noyob yovvoyi qo‘ylarni yaqindan tomosha qilish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, Forish tumanidagi Mojarum qishlog‘ida eng qadimiy sarv daraxti bor. Yoshi taxminan ikki ming yildan ziyod bo‘lgan mazkur daraxt aylanasi salcam 24 metr. Mahalliy xalq orasida uni Aleksandr Makedonskiy ekanan degan rivoyat saqlanib qolgan.

Mazkur daraxtni ko‘rishga yiliga minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyursa-da, afsuski ushbu qishloqda sayyohlar uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilmagan.

Aydar-Amnasoy ko‘llari tizimi ham mazkur hududda joylashgan. Bu ko‘llar noyob turistik resurs bo‘lishi bilan birga, qishlovchi qushlarning makoni va o‘ziga xos hayvonot olamiga ega hudud hisoblanadi. Yuqoridagi ta’kidlaganimizdek, viloyatda turizmni, jumladan, ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu borada faqat infratuzilmani yaxshilash, mavjud muammolarni bartaraf etish, sohaga qiziquvchilarni qo‘llab-quvvatlash talab etiladi. Ushbu sohalarida viloyatda bajarilayotgan ishlarni tahlil qilsak, yaqin orada Jizzax viloyati ham mamlakatimizning turizm sohasi rivojlangan tarixiy va qadimiy hududlarimiz qatoridan o‘rin olishi oydinlashadi. Buni viloyat iqtisodiyotida turizm ulushi tobora ortib borayotganidan, shu sohaning asosiy drayveriga aylana-yotganidan ham bilsak bo‘ladi.

Farhod NE‘MATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
43927 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15